Yıl/Year:2026, Cilt/Volume:5, Sayı/Issue:1

Ingliz Tilini Maxsus Maqsadlarda O‘Qitishda Korpusga Asoslangan va Korpusdan Kelib Chiqadigan Yondashuvlar: Professional Diskursning Empirik Tahlili

Corpus-Based and Corpus-Driven Approaches to Teaching English for Specific Purposes: An Empirical Analysis of Professional Discourse

Fariza MUSAYEVA
ORCID: 0009-0004-6296-0792

DOI: 10.5281/zenodo.21004387

ANNOTATSİYA

Mazkur tadqiqot ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish (ESP) kontekstida korpus lingvistikasi doirasida shakllangan corpus-based va corpus-driven metodologik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu yondashuvlar o‘rtasidagi metodologik farqlarni aniqlashtirish hamda ESPga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda corpus-based yondashuvning amaliy va nazariy ustunligini empirik asosda ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot empirik xarakterga ega bo‘lib, muallif tomonidan tuzilgan ESP korpusi asosida olib borildi. Korpus tarkibiga ilmiy maqolalar, darsliklar va maxsus lug‘atlar kiritildi hamda umumiy hajmi 2 milliondan ortiq so‘zdan iborat bo‘ldi. Tahlil jarayonida chastota, konkordansiya va kollokatsion usullar qo‘llanildi. Natijalar professional diskursda yuqori chastotali leksik birliklar, ularning kontekstual qo‘llanishi va barqaror kollokatsion naqshlari mavjudligini ko‘rsatdi. Konkordansiya tahlili leksik birliklarning ma’nosi ko‘pincha ularning real nutq kontekstida namoyon bo‘lishini tasdiqladi, kollokatsion tahlil esa terminologik birliklarning tizimli va standartlashgan birikmalar orqali qo‘llanilishini aniqladi. Tadqiqot natijalari corpus-based yondashuvning ESP kontekstida lug‘at tanlash, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonini rejalashtirishda metodologik jihatdan asosli va pedagogik jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv real til qo‘llanishiga asoslangan holda talabalarning professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish (ESP), Korpus lingvistikasi, Corpus-based yondashuv, Professional diskurs, Kollokatsiya, Konkordansiya, Lug‘at o‘qitish.

ABSTRACT

This study focuses on a comparative analysis of the corpus-based and corpus-driven methodological approaches formed within corpus linguistics in the context of English for Specific Purposes (ESP). The primary objective of the research is to clarify the methodological distinctions between these approaches and to empirically demonstrate the practical and theoretical advantages of the corpus-based approach in ESP-oriented research. The study is empirical in nature and was conducted on the basis of an ESP corpus compiled by the author. The corpus comprises research articles, textbooks, and specialized dictionaries, with a total volume exceeding 2 million words. Frequency, concordance, and collocational analysis methods were applied during the analysis. The results indicated the presence of high-frequency lexical items, their contextual usage, and stable collocational patterns in professional discourse. Concordance analysis confirmed that the meaning of lexical items is frequently manifested in their real speech context, while collocational analysis identified the systematic and standardized combinations through which terminological units are used. The findings demonstrate that the corpus-based approach is methodologically sound and pedagogically effective in vocabulary selection, instructional material development, and syllabus design within the ESP context. This approach serves to develop students' professional communicative competence based on real language use.

Keywords: English for Specific Purposes (ESP), Corpus linguistics, Corpus-based approach, Professional discourse, Collocation, Concordance, Vocabulary teaching.

Yazar: Fariza MUSAYEVA
Ünvan: Doktora Öğrencisi
Kurum: (TIQXMMI) Milliy Tadqiqot Universiteti, Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti
E- mail: f_musayeva@tiame.uz

Başvuru Tarihi/Received: 27.04.2026
Kabul Tarihi/Accepted: 17.06.2026

1. Kirish

So‘nggi yillarda korpus lingvistikasi tilshunoslik va amaliy til o‘qitish sohalarida muhim empirik yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda. Elektron shaklda jamlangan katta hajmdagi til ma’lumotlarini kompyuter yordamida tahlil qilish imkoniyati til hodisalarini real nutq asosida o‘rganishga yo‘l ochdi. Natijada tilni intuitiv kuzatuvlarga tayanib tavsiflashdan ko‘ra, chastota, taqsimlanish va takrorlanuvchi birliklarga asoslangan empirik tahlilga qiziqish ortdi (Biber et al., 1998; McEnery & Hardie, 2011)

Korpus lingvistikasi doirasida shakllangan yondashuvlar ichida *corpus-based* (korpusga asoslangan) va *corpus-driven* (korpusdan kelib chiqadigan) metodologiyalar alohida o‘rin tutadi. Har ikkala yondashuv real til ma’lumotlariga tayansada, ularning nazariy asoslari va tahlil tamoyillari o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Shunga qaramay, amaliy tadqiqotlarda, ayniqsa til o‘qitish va lug‘at tanlash jarayonida, bu ikki yondashuv ko‘pincha aniq farqlanmasdan qo‘llaniladi. Bu esa metodologik noaniqliklarni keltirib chiqaradi (Tognini-Bonelli, 2002; Sinclair, 2004).

Mazkur muammo ayniqsa ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish (ESP) kontekstida dolzarbdir. ESP tadqiqotlari, odatda, professional diskursni tavsiflash, soha uchun xos lug‘at birliklarini aniqlash hamda o‘quv materiallarini ishlab chiqishga yo‘naltiriladi. Shu sababli, tanlanadigan metodologik yondashuv nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali bo‘lishi zarur (Hyland, 2004; Flowerdew, 2012).

ESP doirasida olib borilgan tadqiqotlarning yana bir muhim yo‘nalishi janr tahlili va lug‘at tanlash masalalari bilan bog‘liq. Swales (1990) tomonidan ishlab chiqilgan janr tahlili modeli professional va akademik matnlarning struktur xususiyatlarini aniqlashda nazariy asos yaratdi, bu esa korpusga asoslangan tadqiqotlarda matn turlarini tizimli tasniflash imkonini berdi. Shu bilan birga, Coxhead (2000) tomonidan tuzilgan akademik lug‘at ro‘yxati korpus ma’lumotlariga tayangan lug‘at tanlovining amaliy ahamiyatini namoyon etdi, bu yondashuv keyinchalik turli sohalarga xos lug‘at ro‘yxatlarini ishlab chiqishda namuna sifatida qo‘llanildi. O’Keeffe, McCarthy va Carter (2007) esa korpus tadqiqotlari natijalarini bevosita til o‘qitish amaliyotiga tatbiq etishning aniq yo‘llarini ko‘rsatib, korpusga asoslangan ma’lumotlarning ta’lim metodikasidagi rolini yanada kengaytirdi. Ushbu tadqiqotlar korpus lingvistikasining nazariy tamoyillari bilan amaliy til o‘qitish ehtiyojlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi korpus lingvistikasi doirasida shakllangan *corpus-based* va *corpus-driven* yondashuvlar o‘rtasidagi metodologik farqlarni aniqlashtirish hamda ESPga yo‘naltirilgan tadqiqotlar uchun corpus-based yondashuvning ustunliklarini asoslashdan iborat. Maqolada ushbu yondashuvlarning nazariy asoslari, empirik tamoyillari va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi hamda til o‘qitish, xususan, lug‘at o‘rgatish jarayonidagi imkoniyatlari muhokama etiladi.

2. Metodlar

Mazkur tadqiqot empirik xarakterga ega bo‘lib, korpus lingvistikasi doirasida shakllangan *corpus-based* (korpusga asoslangan) metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish (ESP) kontekstida professional diskursning leksik xususiyatlarini aniqlash hamda real til qo‘llanishiga asoslangan empirik ma’lumotlar asosida pedagogik xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda tahlil oldindan belgilangan lingvistik kategoriyalar va mezonlarga tayangan holda amalga oshirildi (McEnery & Hardie, 2011; Biber et al., 1998).

2.1. Tadqiqot dizayni

Tadqiqot dizayni *corpus-based* yondashuv tamoyillariga asoslandi. Ushbu yondashuvda korpus mavjud nazariy tushunchalarni empirik ma’lumotlar asosida tekshirish va aniqlashtirish vositasi sifatida qo‘llaniladi (Biber et al., 1998). Tadqiqot jarayonida chastota, taqsimlanish va kollokatsion naqshlar professional diskursni tavsiflashning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida belgilandi (Hunston, 2002; Stubbs, 2005)

Corpus-driven yondashuvdan farqli ravishda, mazkur tadqiqotda tahlil to‘liq induktiv tarzda olib borilmadi. Tadqiqotning pedagogik yo‘naltirilganligi, xususan, ESP uchun o‘quv materiallari va lug‘at birliklarini aniqlash maqsadi mavjud lingvistik kategoriyalar hamda amaliy ehtiyojlarga tayangan holda ishlashni talab etdi (Sinclair, 2004). Shu bois *corpus-based* yondashuv tadqiqot maqsadlariga metodologik jihatdan mos deb topildi (Flowerdew, 2012; Tognini-Bonelli, 2002).

2.2. Korpusni shakllantirish

Tadqiqot doirasida muallif tomonidan maxsus tuzilgan ESP korpusi yaratildi. Korpus professional diskursga xos yozma matnlardan tashkil topdi. Matnlarni tanlashda ularning mavzuviy mosligi, terminologik boyligi va real professional qo‘llanishga yaqinligi asosiy mezonlar sifatida belgilandi (Biber et al., 1998; Anthony, 2018).

Korpus tarkibiga ilmiy maqolalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va maxsus lug‘atlar kiritildi. Barcha matnlar elektron formatga keltirilib, texnik tozalash (formatlash, ortiqcha belgilarni olib tashlash) jarayonidan o‘tkazildi hamda tahlil uchun moslashtirildi. Korpus hajmi tadqiqot maqsadlariga muvofiq shakllantirildi va professional diskursning asosiy leksik xususiyatlarini aks ettirishga yo‘naltirildi. (Hunston, 2002).

Korpus tarkibi 100 ta ilmiy maqola, 11 ta darslik hamda sohaga oid maxsus lug‘atlarni o‘z ichiga oladi. Korpusning umumiy hajmi taxminan 2 044 089 so‘zdan iborat bo‘lib, u professional diskursni ishonchli tarzda tahlil qilish uchun yetarli empirik asos yaratadi (Brezina, 2018).

2.3. Tahlil vositalari va jarayoni

Korpus ma’lumotlarini tahlil qilish jarayonida zamonaviy korpus lingvistikasi vositalaridan, xususan, Sketch Engine dasturidan foydalanildi. Ushbu platforma katta hajmdagi til ma’lumotlarini avtomatik tahlil

qilish, chastota ro‘yxatlarini tuzish, konkordansiya satrlarini ko‘rish hamda kollokatsion naqshlarni aniqlash imkonini beradi (Kilgarriff et al., 2014). Shu sababli, u korpus asosidagi tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan ishonchli analitik vosita hisoblanadi.

Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda korpus asosida chastotali so‘zlar ro‘yxati tuzilib, professional diskurs uchun xos bo‘lgan yuqori chastotali leksik birliklar aniqlandi. Ushbu bosqich leksik birliklarning korpusdagi taqsimlanishini aniqlash hamda ustuvor lug‘at qatlamini belgilash imkonini berdi (Biber et al., 1998; Nation, 2001).

Ikkinchi bosqichda konkordansiya tahlili yordamida tanlangan birliklarning real kontekstlardagi qo‘llanilishi o‘rganildi. Konkordansiya satrlari leksik birliklarning sintaktik va semantik muhitini aniqlashga yordam berib, ularning diskursdagi funksional xususiyatlarini ochib beradi (Hunston, 2002; Römer & Schulze, 2009).

Shuningdek, kollokatsion tahlil orqali terminologik birliklarning tipik birikmalari va ularning kontekstual xususiyatlari aniqlashtirildi. Kollokatsion naqshlarni aniqlash til birliklarining tasodifiy emas, balki tizimli ravishda birga qo‘llanishini ko‘rsatadi (Stubbs, 2005; Rühlemann, 2012). Ushbu tahlillar leksik birliklarning nafaqat mavjudligini, balki ularning professional diskursdagi funksional rolini ham tavsiflash imkonini berdi.

Olingan empirik natijalar keyingi bosqichda pedagogik talqin uchun asos bo‘lib xizmat qildi hamda ESP kontekstida lug‘at tanlash va o‘quv materiallarini ishlab chiqishda data-informed yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatdi.

3. Natijalar

Korpus tahlili natijalari ESP kontekstida professional diskursning leksik tuzilishini empirik asosda tavsiflash imkonini berdi. Chastota, konkordansiya va kollokatsion tahlillar orqali professional diskursda ustuvor bo‘lgan leksik birliklar, ularning kontekstual qo‘llanilishi hamda barqaror birikmalari aniqlandi.

3.1. Yuqori chastotali leksik birliklar

Yuqori chastotali leksik birliklar ESP talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan ehtiyojlar tahlili natijalariga tayangan holda aniqlandi. Tahlil ushbu birliklarning aksariyati professional jarayonlar, texnik amaliyot va soha faoliyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Eng yuqori chastotali birliklar korpusning umumiy hajmida muhim ulushni egallab, professional diskursning leksik yadrosini shakllantiradi.

Quyidagi jadvalda korpusda eng ko‘p uchragan ayrim birliklar va ularning tipik kollokatsion naqshlari keltirilgan:

Table 1. ESP korpusida yuqori chastotali leksik birliklar taqsimoti

Lexical item	Raw frequency	Typical collocational pattern
process	428	process + of + N
system	391	system + for + N
operation	356	operation + of + N
control	312	control + over + N
maintenance	287	maintenance + of + N

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu birliklar umumiy akademik leksikaga nisbatan ancha yuqori chastotada qo‘llanadi va ESP kontekstida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa chastota ko‘rsatkichlari maxsus lug‘atni tanlashda asosiy mezonlardan biri bo‘lishi kerakligini tasdiqlaydi.

3.2. Konkordansiya tahlili va kontekstual qo‘llanish

Konkordansiya tahlili yuqori chastotali birliklarning real nutq kontekstlarida qanday ishlatilishini aniqlash imkonini berdi. Ushbu tahlil natijalari quyidagi misolda keltirilgan.

Figure 1. Concordance lines of the lexical item “process” in the ESP corpus




Figure 1 da *process* leksik birligining turli kontekstlarda qo‘llanilishi aks etgan. Natijalardan ko‘rinadiki, ushbu birlik asosan ‘*process of drilling*’, ‘*process of extraction*’, ‘*process of development*’ kabi texnik jarayonlarni ifodalovchi kollokatsiyalar tarkibida muntazam qo‘llanadi. Masalan, korpusda uchraydigan *‘the process of drilling for wells…’* kabi birliklar uning texnik jarayonni ifodalovchi ixtisoslashgan kontekstda ishlatilishini yaqqol namoyon etadi. Bu esa ‘*process*’ leksik birligining ESP diskursida kontekstga bog‘liq va ixtisoslashgan ma’noga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, natijalar ko‘plab leksik birliklarning alohida so‘z sifatida emas, balki muayyan sintaktik va semantik tuzilmalar doirasida muntazam qo‘llanishini ko‘rsatadi. Ayrim umumiy tilga xos birliklar ESP diskursida tor va ixtisoslashgan ma’noga ega bo‘lib, asosan texnik jarayonlar bilan bog‘liq kontekstlarda ishlatiladi. Konkordansiya tahlili ushbu birliklarning tipik gap tuzilmalari va kommunikativ funksiyalarini aniqlash imkonini berdi. Bu esa lug‘at o‘qitishda faqat so‘z ma’nosini emas, balki ularning real qo‘llanish muhitini ham o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi.

3.3. Kollokatsion naqshlar

Kollokatsion tahlil professional diskursda leksik birliklarning barqaror birikmalar orqali qo‘llanilishini tasdiqladi. Ko‘plab terminologik birliklar muayyan so‘zlar bilan muntazam birga qo‘llanib, professional muloqot uchun xos bo‘lgan tipik naqshlarni hosil qiladi. Masalan, ayrim terminlar o‘ziga xos fe’llar yoki ot birikmalari bilan barqaror tarzda ishlatilib, aniq va standartlashgan ma’noni ifodalaydi. Ushbu kollokatsiyalar korpusda izchil takrorlanib, ularning tizimli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija ESPda lug‘at o‘qitishda alohida so‘zlardan ko‘ra, ularning tipik kollokatsion birliklarini o‘rgatish samaraliroq ekanligini asoslaydi. Ushbu natijalar leksik birliklarni o‘qitishda ularning real kontekstdagi qo‘llanilishiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

4. Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari korpusga asoslangan tahlil ESP kontekstida professional diskursni empirik va tizimli tarzda tavsiflash imkonini berishini ko‘rsatdi. Chastota, konkordansiya va kollokatsion tahlillar orqali aniqlangan leksik naqshlar til birliklarining real qo‘llanishini ochib berib, intuitiv tavsiflarga nisbatan ishonchliroq asos yaratadi. Bu natijalar korpus lingvistikasi bo‘yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, real til ma’lumotlariga tayanishning ustuvorligini tasdiqlaydi (Biber et al., 1998; McEnery & Hardie, 2011; Tognini-Bonelli, 2002).

Birinchidan, yuqori chastotali leksik birliklar tahlili professional diskursda ustuvor bo‘lgan lug‘at qatlamini aniqlashda korpusga asoslangan yondashuvning samaradorligini namoyon etdi. Professional faoliyat va texnik jarayonlar bilan bog‘liq birliklarning izchil va yuqori chastotada uchrashi ESP doirasida lug‘at tanlashda chastota mezonining muhimligini ko‘rsatadi. Bu natija Nation (2001) tomonidan ta’kidlanganidek, lug‘atni o‘rganishda yuqori chastotali birliklar markaziy o‘rin tutishini tasdiqlaydi hamda o‘quv materiallarini ishlab chiqishda empirik dalillarga tayanish zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, konkordansiya tahlili leksik birliklarning ma’nosi va funksiyasi ko‘pincha ularning kontekstual qo‘llanishi orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Umumiy tilga xos ayrim birliklar ESP diskursida ixtisoslashgan ma’noga ega bo‘lib, asosan texnik jarayonlar bilan bog‘liq kontekstlarda qo‘llanadi. Bu natijalar korpusga asoslangan yondashuvda kontekstning markaziy rolini ta’kidlovchi tadqiqotlar bilan mos keladi (Hunston, 2002; Römer & Schulze, 2009) hamda Flowerdew (2012) tomonidan ilgari surilgan real diskursga asoslangan o‘qitish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, kollokatsion tahlil professional diskursda leksik birliklarning barqaror va tizimli birikmalar orqali qo‘llanilishini aniqladi. Aniqlangan kollokatsiyalar terminologik birliklarning standartlashgan kombinatsiyalarda ishlatilishini ko‘rsatadi. Bu natija Stubbs (2005) va Gries (2023) tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, leksik birliklarning kollokatsion xususiyatlari ularning haqiqiy funksional ma’nosini

belgilashda muhim ekanligini tasdiqlaydi. Shunga ko‘ra, ESP lug‘at o‘qitishda alohida terminlardan ko‘ra, ularning tipik kollokatsion birliklariga e’tibor qaratish zarur.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari korpusga asoslangan ma’lumotlarning bevosita til o‘qitish amaliyotiga tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu yondashuv Johns (1991) tomonidan ilgari surilgan ma’lumotga asoslangan o‘qitish (data-driven learning) tamoyiliga mos kelib, o‘quvchilarning korpus materiallari bilan bevosita ishlashi orqali til hodisalarini mustaqil kashf etishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, Boulton va Cobb (2017) tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalari korpusga asoslangan o‘qitish usullarining til o‘rganish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan tasdiqlaydi, bu esa mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan corpus-based yondashuvning pedagogik asosliligini yanada mustahkamlaydi.

Mazkur topilmalar *corpus-based* yondashuvning metodologik jihatdan shaffof va pedagogik jihatdan amaliy ekanligini ko‘rsatadi. *Corpus-driven* yondashuv nazariy jihatdan muhim bo‘lsa-da, ESP kabi aniq pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda to‘liq induktiv yondashuv har doim ham samarali natija bermaydi (Sinclair, 2004). Aksincha, mavjud lingvistik kategoriyalar va pedagogik ehtiyojlarga tayangan corpus-based yondashuv lug‘at tanlash, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonini rejalashtirishda yanada maqbul yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi (Anthony, 2018; Hyland & Jiang, 2019).

Umuman olganda, ushbu natijalar korpusga asoslangan empirik tahlil ESP ta’limida real til qo‘llanishini markazga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv professional diskursni aniq tavsiflash, data-informed o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Xulosa

Mazkur maqolada korpus lingvistikasi doirasida shakllangan *corpus-based* va *corpus-driven* yondashuvlar o‘rtasidagi metodologik farqlar tahlil qilindi hamda ESPga yo‘naltirilgan tadqiqotlar uchun *corpus-based* yondashuvning ustunligi empirik dalillar asosida asoslandi. Tadqiqot natijalari korpusga asoslangan tahlil til birliklarining real qo‘llanishini tizimli va ishonchli tarzda tavsiflash imkonini berishini ko‘rsatdi.

Chastota, konkordansiya va kollokatsion tahlillar professional diskursda ustuvor bo‘lgan leksik birliklar hamda ularning tipik qo‘llanish naqshlarini aniqlashda ushbu metodologiyaning samaradorligini namoyon etdi. Natijalar intuitiv yondashuvlarga nisbatan empirik tahlilning ustunligini ko‘rsatib, ESP kontekstida lug‘at tanlash va o‘quv materiallarini ishlab chiqishda data-informed qarorlar qabul qilish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, tahlillar *corpus-driven* yondashuvning nazariy ahamiyatini inkor etmagan holda, ESP kabi aniq pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda *corpus-based* yondashuvning amaliy jihatdan maqbulligini ko‘rsatdi. Mavjud lingvistik kategoriyalar va o‘quv ehtiyojlariga tayangan ushbu yondashuv lug‘at tanlash, material ishlab chiqish va o‘quv jarayonini rejalashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, *corpus-based* metodologiya professional diskursni aniq tavsiflash, lug‘at birliklarini real

kontekstda o‘rganish va o‘quv materiallarini empirik asosda ishlab chiqish uchun mustahkam zamin yaratadi. Ushbu yondashuv leksik birliklarning chastotasi bilan bir qatorda ularning funksional va kollokatsion xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini berib, o‘quvchilarning professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar korpus tahlili natijalarini bevosita o‘quv jarayoniga tatbiq etish va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini baholashga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, Chambers (2007) tomonidan ta’kidlanganidek, korpusdan foydalanish amaliyotini til o‘qituvchilari va talabalar o‘rtasida kengroq tarqatish hamda ularni korpus vositalaridan mustaqil foydalanishga o‘rgatish ESP ta’limining samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat korpus tahlili natijalarini o‘quv materiallariga aylantirish, balki o‘qituvchi va talabalarning korpus vositalari bilan bevosita ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

Anthony, L. (2018). *Introducing English for Specific Purposes* (1st edn). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781351031189

Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use* (1st edn). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511804489

Boulton, A., & Cobb, T. (2017). Corpus use in language learning: A meta-analysis. *Language Learning*, 67(2), 348–393. https://doi.org/10.1111/lang.12224

Brezina, V. (2018). *Statistics in Corpus Linguistics: A Practical Guide* (1st edn). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781316410899

Chambers, A. (2007). Popularising corpus consultation by language learners and teachers. In E. Hidalgo, L. Quereda, & J. Santana (Eds.), *Corpora in the Foreign Language Classroom* (pp. 3–16). Rodopi.

Coxhead, A. (2000). A New Academic Word List. *TESOL Quarterly*, *34*(2), 213–238. https://doi.org/10.2307/3587951

Flowerdew, J. (2012). *Discourse in English Language Education* (0 edn). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203080870

Gries, S. T. (2023). Collostructional Methods. In C. A. Chapelle (Ed.), *The Encyclopedia of Applied Linguistics* (1st edn, pp. 1–6). Wiley. https://doi.org/10.1002/9781405198431.wbeal20003

Hunston, S. (2002). *Corpora in Applied Linguistics* (1st edn). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139524773

Hyland, K. (2004). Disciplinary interactions: Metadiscourse in L2 postgraduate writing. *Journal of Second Language Writing*, *13*(2), 133–151. https://doi.org/10.1016/j.jslw.2004.02.001

Hyland, K., & Jiang, F. (Kevin). (2019). *Academic Discourse and Global Publishing: Disciplinary Persuasion in Changing Times* (1st edn). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429433962

Johns, T. F. (1991). Should you be persuaded: Two samples of data-driven learning materials. *ELR Journal*, 4, 1–16.

Kilgarriff, A., Baisa, V., Bušta, J., Jakubíček, M., Kovář, V., Michelfeit, J., Rychlý, P., & Suchomel, V. (2014). The Sketch Engine. *Lexicography*, *1*(1), 7–36. https://doi.org/10.1007/s40607-014-0009-9

McEnery, T., & Hardie, A. (2011). *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice* (1st edn). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511981395

Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language* (1st edn). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139524759

O'Keeffe, A., McCarthy, M., & Carter, R. (2007). *From Corpus to Classroom: Language Use and Language Teaching*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511497650

Römer, U., & Schulze, R. (Eds). (2009). *Exploring the Lexis-Grammar Interface*. John Benjamins Publishing Company. https://doi.org/10.1075/scl.35

Rühlemann, C. (2012). Review of Gries (2009): Quantitative Corpus Linguistics with R. A Practical Introduction. *International Journal of Corpus Linguistics*, *17*(2), 287–293. https://doi.org/10.1075/ijcl.17.2.06ruh

Sinclair, J. (2004). *Trust the Text: Language, Corpus and Discourse* (R. Carter, Ed.; 0 edn). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203594070

Stubbs, M. (2005). *Words and phrases: Corpus studies of lexical semantics* (Reprint.). Blackwell.

Swales, J. M. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge University Press.

Tognini-Bonelli, E. (2002). Corpus Linguistics at Work. *Computational Linguistics*, *28*(4), 583–583. https://doi.org/10.1162/coli.2002.28.4.583a